



QASHQADARYO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO  
VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

2022- yil  
*yanvar-sentabr*



## QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **3461,4** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **53,1** ming kishiga yoki **1,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1483,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,9 %**), qishloq aholisi soni **1977,7** ming kishi (**57,1 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**3461,4** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+72,3** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022- yil 1- oktabr holatiga

#### Shahar



**42,9%**


#### Qishloq



**57,1%**

### Erkaklar


**50,6%**



**1 752,9** ming kishi

### Ayollar

**49,4%**



**1708,5** ming kishi

## Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



### Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2022- yil 1- oktabr holatiga

**9,7 %**


Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar

**56,4 %**

Mehnatga layoqatli yoshdagilar

**33,9 %**

Mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyat doimiy aholisi sonining **33,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **9,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

*1- oktabr holatiga, ming kishi*

	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>	<b>O’sish sur’ati, % da</b>
<b>Qashqadaryo viloyat</b>	<b>3389,1</b>	<b>3461,4</b>	<b>102,1</b>
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	281,8	287,9	102,2
Shahrisabz sh	142,0	144,3	101,1
G‘uzor	211,2	215,9	102,2
Dehqonobod	152,3	155,4	101,5
Qamashi	279,1	285,1	101,6
Qarshi	257,6	263,8	101,7
Koson	295,7	302,6	102,3
Kitob	269,8	274,6	101,8
Mirishkor	123,5	126,1	102,1
Muborak	89,8	91,4	101,8
Nishon	158,4	161,8	102,1
Kasbi	203,0	207,0	102,0
Ko‘kdala	-	179,8	-
Chiroqchi	428,9	260,8	60,8
Shahrisabz	226,4	229,8	101,5
Yakkabog‘	269,6	275,1	102,0

*-Ko‘kdala tumani yangi tashkil topgan tuman bo‘lib, o‘tgan davr va o’sish sur’ati ma’lumotlari kiritilmadi*

## Tug‘ilganlar soni

**Ma’lumot uchun!:** tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

**Qiz bola:**

**37,4 ming kishi**




**O'g'il bola:**

**34,3 ming kishi**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **71,7** mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar **52,2 %** ni, qiz bolalar **47,8 %** ni tashkil etadi.

### **Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi**

*2022- yil yanvar-sentabr*



2022- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,9%**
- 2 nafar – **2,1%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,0%**

## Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

*1- oktabr holatiga, kishi*

	2021- yil	2022- yil	O‘sish sur’ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyat</b>	<b>72207</b>	<b>71748</b>	<b>99,4</b>
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	4970	6252	125,8
Shahrisabz sh	2518	2571	102,1
G‘uzor	4679	4511	96,4
Dehqonobod	3642	3360	92,3
Qamashi	6291	6195	98,5
Qarshi	5153	5071	98,4
Koson	6695	6430	96,0
Kitob	5181	5186	100,1
Mirishkor	2505	2594	103,6
Muborak	1920	1543	80,4
Nishon	3467	3336	96,2
Kasbi	4127	4251	103,0
Ko‘kdala	-	2322	-
Chiroqchi	11414	8392	73,5
Shahrisabz	4081	3777	92,6
Yakkabog‘	5564	5957	107,1


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **71,7** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirk tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **27,9** promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan plus 0,8 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **28,7** promille bo‘lgan).



## VAFOT ETGANLAR


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **13,2** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,1** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan minus **0,6** promillega ko‘paygan (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,5** promille).

**O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi**  
2022- yil yanvar-sentabr, kishi




2022- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **44,6 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,2 %** i – o’simtalardan, **18,2 %** i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **6,0 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,5 %** i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **1,0 %** i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **18,5 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

### QAYD ETILGAN NIKOHLAR




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **20298** ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,9** promille ni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,4** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 7,5 promille bo‘lgan).

### NIKOH DAN AJRALISHLAR



2022- yil yanvar-sentabr oylarida **2,7** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promille ni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **0,8** promille bo‘lgan).

**Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi**  
2022- yil yanvar-sentabr



2022- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **28,8** % i farzandsiz, **44,9** % i bitta farzand bilan va **26,3** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


## AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2022- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **7252** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **12704** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi - **5452** kishini tashkil etadi. 2021- yilning mos davrida -**7185** kishi bo‘lgan.

### Qashqadaryo viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr, (ming kishi)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,3** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **2,8** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan - **0,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **3,6** promille bo‘lgan).



## Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr, (ming kishi)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **12,7** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **4,9** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-1,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,5** promille bo'lgan).



## **Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.



**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

*Tel: 75 221-15-84, 70-70*